

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**



“ ” 2026-y

“ ” 2026-y

“ ” 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

**“Tasviriy va amaliy san‘at tarixi”  
“O‘zbekiston san‘ati tarixi” fanlari**

60211000 San‘atshunoslik: tasviriy va amaliy san‘at

*(kunduzgi va masofaviy) ta‘lim yo‘nalishi uchun*

**Toshkent – 2026-yil**

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti O'quv uslubiy kengashining 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_"-son qarori bilan tasdiqlangan.

- Tuzuvchi:**
- **K.S. Nishonova**  
San'at tarixi va nazariyasi kafedrası mudiri s.f.f.d.,  
(PhD) dotsent
- Taqrizchilar:**
- **Z.D. Aliyeva**  
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
San'atshunoslik instituti ilmiy hodimi, s.f.n.
  - **A.G. Rahmatullayeva**  
San'at tarixi va nazariyasi kafedrası dotsenti, s.f.f.d.,  
(PhD)

## KIRISH

60211000-San'atshunoslik: tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo'nalishning kunduzgi va sirtqi shakliga o'qishga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar topshiriqlarini bajarish va ularni baholash mezonlari tartibini belgilaydi.

**“Tasviriy va amaliy san'at tarixi”** va **“O'zbekiston san'ati tarixi”** fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dastur mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim sohasida islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda san'at sohasi turlaridan kelib chiqib tasviriy va amaliy san'atdagi kasbiy mahorat, amaliy ko'nikmalarning shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

### **I. 60211000-San'atshunoslik (tasviriy va amaliy san'at) ta'lim yo'nalishi bo'yicha abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.**

60211000-San'atshunoslik: tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi va masofaviy ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni **“Tasviriy va amaliy san'at tarixi”** va **“O'zbekiston san'ati tarixi”** fanlaridan topshiradi.

**“Tasviriy va amaliy san'at tarixi”** fani ijodiy imtihon bo'yicha yozma ishda yoritishda rassom yashagan davr tarixini bilishi, davr badiiy uslubini bilishi, rassomning o'ziga xos ijodiy uslubini aniqlay olishi, rassomning asarlarini bilishi, asarni badiiy tahlil qila olish mahorati, kartina syujetini aniqlay olishi, asar g'oyasini farqlay olishi, rassomning manerasini bilishi kabi masalalarni yozma shaklda yoritib berishi talab etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Tasviriy va amaliy san'at tarixi”** fanidan yozma ishni bajarish uchun **80 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan yozma ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

<b>T/r</b>	<b>Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
	<b>Tasviriy va amaliy san'at tarixi fani bo'yicha yozma ish</b>	<b>Jami 63 ball</b>
<b>1.</b>	<b>Jahon san'ati rivojidadagi asosiy bosqichlar</b>	<b>21 ball</b>
	Muayyan davr me'morchiligi, tasviriy san'ati taraqqiyotiga tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning ta'sirini anglay olishi	5 ball
	Davrga oid tarixiy sanalarni aniq belgilay olishi	4 ball
	Davr badiiy uslubiga oid xususiyatlarni anglab yetishi va	4 ball

	muayyan badiiy uslubni boshqa uslub bilan qiyosiy tavsiflay olishi	
	Zamonaviy badiiy jarayon haqida ma'lumotga ega ekanligi	4 ball
	Tasviriy va amaliy san'atining rivojlanish bosqichlari haqida fikr bildiradi olishi	4 ball
2.	<b>Yevropa tasviriy san'atining yirik namoyondalari ijodi</b>	<b>21 ball</b>
	Yevropa tasviriy san'atining yirik namoyondalari ijodini va u yashagan davr tarixini bilishi	5 ball
	Rassomga oid tarixiy sanalarni aniq belgilashi va ijodiy bosqichini tavsiflay olishi	4 ball
	Rassomning asarlarini bilishi va badiiy tahlil qila olish mahorati	4 ball
	Kartina sujetini aniqlay olishi va asar g'oyasini tahlil qila olishi	4 ball
	Asarlarning badiiylik xususiyatlarini anglay olishi	4 ball
3.	<b>Tasviriy va amaliy san'at ustalari ijodi va jahonning eng mashhur me'moriy yodgorliklari</b>	<b>21 ball</b>
	Rassomlarning o'ziga xos badiiy uslubini farqlay olishi	5 ball
	Muayyan rassom ijodini boshqa rassom bilan qiyosiy tavsiflay olishi	4 ball
	Badiiy asar kompozitsiyasi haqida tushunchaga egaligi	4 ball
	San'atshunoslikka oid atamalarni qo'llay olishi	4 ball
	Ma'lumotlarni aniq, ravon bayon etishi va mantiqiy uzviylikda fikrlay olish qobiliyati	4 ball

**“O‘zbekiston san’ati tarixi”** fani bo‘yicha ijodiy imtihonda yozma ishni yoritishda o‘zbek milliy rangtasviri tarixini, shakllanishi va rassom yashagan davr tarixi va badiiy uslubini, rassomning o‘ziga xos ijodiy uslubini, rassomning asarlarini, kartina syujetini bilishi, asar g‘oyasini farqlay olishi, asar mavzusining mazmuni va g‘oyasini ochib berishi, g‘oya-fikrning yoritilishi kabi masalalarni yozma shaklda yoritib berishi talab etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“O‘zbekiston san’ati tarixi”** fanidan berilgan mavzu uchun **80 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan yozma ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
	<b>O‘zbekiston san’ati tarixi fani bo‘yicha yozma ish</b>	<b>Jami 93 ball</b>
1.	<b>O‘zbekistonda tasviriy san’atning shakllanishidagi tarixiy-me’moriy manzilgohlar</b>	<b>31 ball</b>
	O‘zbekiston san’ati tarixi haqida ma’lumotlarga ega ekanligi	8 ball
	O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy obidalari va ularning paydo bo‘lish davrlarini farqlay olishi	8 ball
	Tasviriy san’at janrlari haqida ma’lumotga ega ekanligi	8 ball

	O‘zbekiston tasviriy san’at ustalari, rassomlar va ularning ijodi haqida fikr bildira olishi	7 ball
2.	<b>O‘zbekistonning zamonaviy tasviriy va amaliy san’ati</b>	<b>31 ball</b>
	Zamonaviy tasviriy va amaliy san’at haqida fikr bildira olishi	8 ball
	O‘zbekiston muzeylari va ularning joylashgan hududlarini tushuntira olishi	8 ball
	O‘zbekiston amaliy san’at ustalari va ularning ijodi haqida fikr bildira olishi	8 ball
	Amaliy san’at turlari haqida fikr bildira olishi	7 ball
3.	<b>O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atining rivojlanishi</b>	<b>31 ball</b>
	Muayyan davr me’morchiligi, tasviriy va amaliy san’ati taraqqiyotiga tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning ta’sirini anglay olishi	8 ball
	Davrga oid tarixiy sanalarni aniq belgilashi	8 ball
	Davrning tasviriy va amaliy san’at uslubiga oid xususiyatlarini anglab yetishi va ularni qiyosiy tasvirlay olishi	8 ball
	O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atining rivojlanish bosqichlari haqida ma’lumotga ega ekanligi	7 ball

## II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibi

60211000-San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishining kunduzgi va sirtqi ta’lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ajratilgan vaqt davomida berilgan savollar asosida topshiriqni bajaradi.

Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o‘tkaziladi. Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o‘tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

## III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo‘yicha apellyatsiya tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 578-qaroriga 1-ilova “Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 4-bob 30-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Apellyatsiya shikoyatlari imtihon natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko‘rib chiqiladi.

Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya arizasining ko‘rib chiqilish vaqti va joyi haqida abituriyentga kamida bir kun oldin xabar beriladi.

Arizalar faqat murojaatchining baholari va yozma ishi bilan bog'liq bo'lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ishlari to'g'risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

#### IV. Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev N. "Jahon san'ati tarixi". O'quv qo'llanma. T.; 2007- 271 b.
2. Abdullayev N. "San'at tarixi": ikki jild. T.; 2001–192 b.
3. Abdullayev N. "O'zbekiston san'ati tarixi". T.; O'zFMJN, 2007. -236 b.
4. Alimkulova D. "O'zbekiston san'at tarixi (XIX-XX asrlar)". O'quv qo'llanma. T, 2020 y. -131 b.
5. Kultasheva N. "Umumsan'at tarixi (O'rta asrlar san'ati)". O'quv qo'llanma. T.; 2019.
6. Kultasheva N. "Umumsan'at tarixi (XIX asr G'arbiy Yevropa mamlakatlari san'ati)". O'quv qo'llanma. T.; 2019.
7. Abdullayev T. A. "XIX – XX asr o'zbek kandakorligi". T.; 1974.
8. Hakimov A. "История искусств Узбекистана". T.; "Info Capital Group", 2018. – 416 b.
9. Hakimov A. "Искусство Узбекистана: история и современность". T.; "San'at" , 2010. – 504 b.